

4. González, F. J. C. De las fuentes clásicas a la Inteligencia Artificial: Notebook LM como mediador cognitivo en la enseñanza universitaria de Historia Antigua // AI & Antiquity. — 2026. — P. 11–24.
5. Liu, Y., D'Elia, D., Palermo, R. Let's Chat About Archaeology: Responsible and Thoughtful Use of AI Tools in the Classroom, A Case Study // AI & Antiquity. — 2026. — P. 25–36.
6. Solga, R., Sarwar, M. Evaluating Generative AI in Historical Research: A Comparative Study on Identifying Primary Source Evidence in Ancient History // AI & Antiquity. — 2026. — P. 37–64.
7. Andijon viloyat davlat arxivi, R-90-fond, 1-opis, “Andijon uyezd-shahar inqilobiy qo‘mitasi”, 1917–1923.

**XIX ASR OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA
NOTARIAL HUJJATLARDA XOTIN-QIZLARNING MULKIY
HUQUQLARI**

Bahodirova Mubinaxon Bunyodjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti 1-bosqich talabasi
[*bahodirovamubina741@gmail.com*](mailto:bahodirovamubina741@gmail.com)

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq sudlari faoliyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar, ularning diniy urf-odatlar, milliy va diniy qadriyatlar hamda mulkchilik tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida huquqiy asoslangan ijtimoiy munosabatlar qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish va sud-huquq tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Xalq sudlari, qozilik sudlari, Turkiston, shariat huquqi, vaqf hujjatlari, ayollar huquqi, oila-nikoh munosabatlari, tarixiy manbalar.

Hozirgi davrda dunyoning ko‘plab yetakchi oliy ta‘lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida xalq sudlari faoliyati bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, ushbu masalalar diniy urf-odatlar, milliy va ma‘naviy qadriyatlar, shuningdek, mulkchilik munosabatlari doirasida huquqiy jihatdan tahlil qilinmoqda. Qiyosiy tadqiqotlar asosida turli ilmiy xulosalar chiqarilib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu esa mazkur sohani yanada chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash g‘oyasi Yangi O‘zbekistondagi demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Yurtdoshimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Asosiy Qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi”.

Mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishiga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta‘minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 58-moddasida “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlaydi”, deb belgilangan⁷.

O‘rta asrlarda Turkiston xalqlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan qozilik sudlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham jamiyatni boshqarish va tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu davrda sud tizimi orqali qonuniylikning uzluksizligini ta‘minlashga erishilgan.

⁷ https://constitution.uz/oz/pages/xotin_qizlar_huquqlari

Turkistonda general-gubernatorlik davrida hamda o‘lka aholisi manfaatlarini inobatga olgan holda xalq sudyalari lavozimiga saylovlar o‘tkazilgan. Biroq bu jarayonlarda mustamlakachilik tamoyillarini joriy etishga urinishlar kuzatilgan. Xususan, ayrim hollarda tayinlangan qozilar hukumatga sadoqatli bo‘lishi asosiy mezon sifatida belgilangan va bunda an‘anaviy sud tizimidan foydalanilgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida huquqiy-an‘anaviy tartib-qoidalar bilan bir qatorda, qozilik mahkamasi hujjatlarini yuritishda Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan protsessual va notarial normalar ham qo‘llanilgan. Shu bilan birga, islom huquqi asosidagi shariat qonunlari ham amal qilgan bo‘lib, bu ikki tizimning uyg‘unlashuvi o‘ziga xos huquqiy muhitni yuzaga keltirgan.

Turkistonda vaqf, vasiqa, iqromnoma (yoki iqrar xati), vakolatnoma (yoki vakolat xati) kabi hujjatlar arxivshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ularni o‘rganishda fanlararo yondashuv asosida protsessual va notarial rasmiylashtirish tartiblarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ijtimoiy hayotda oddiy ayollarga nisbatan malikalar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faolroq ishtirok etgan. Shunday tarixiy shaxslardan biri Fahriniso (Ming oyim) hisoblanadi. U Qo‘qon xoni Shohruh avlodidan bo‘lgan Imomqulibekning qizi bo‘lib, XVIII asrda muhim mavqega ega bo‘lgan. Ming oyim Qo‘qon shahrida madrasa qurdirgan hamda ushbu muassasa uchun ko‘plab vaqf mulklarini ajratgan. Bu esa uning nafaqat siyosiy, balki ma‘rifiy faoliyatda ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Turkiston o‘lkasidagi vaqf yerlarining asosiy qismi Farg‘ona hududida joylashgan edi. “Nizom”ning 4-bobi tegishli moddasiga muvofiq, 1887-yilda xon va amir muhrlari bilan tasdiqlangan vaqfnoma hamda vasiqanomalar viloyat boshqarmalariga tekshirish uchun topshirilgan. Jumladan, Farg‘ona viloyatida 1733 ta, Samarqand viloyatida 107 ta, Toshkentda esa 361 ta shunday hujjat qayd etilgan. Mazkur vaqfnomalarga ega bo‘lgan masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalar yer solig‘idan ozod etilgan. Aksincha, xon va amir muhrlari bilan

tasdiqlanmagan vaqfnoma egalari davlat xazinasiga yer solig‘i to‘lashga majbur bo‘lgan. Bunday hujjatlar soni ham ancha ko‘p bo‘lib, Farg‘ona viloyatida 4177 tani, Samarqand viloyatida 1651 tani, Toshkent uezdida esa 36 tani tashkil etgan. Qo‘lyozma manbalar va qozilik hujjatlari respublikamizda oila-nikoh munosabatlariga oid boy tarixiy materiallar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq ularning katta qismi hali to‘liq o‘rganilmagan va qo‘lyozma holida saqlanib qolmoqda. Chor Rossiyasi davriga oid hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollar ko‘pincha qozi, biy va miravoy sudyalarga murojaat qilgan. Ularning arizalari asosan mehr talab qilish, qalin pulini qaytarish, er merosidan ulush olish, taloq hamda nafaqa masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Afsuski, bu hujjatlarning aksariyati hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Holbuki, ular O‘zbekiston tarixining iqtisodiy, huquqiy va madaniy jihatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu materiallar orqali aholining turmush tarzi, mashg‘ulotlari, ayollarning oiladagi o‘rni hamda milliy urf-odat va an‘analar haqida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklariga oid hujjatlar bir-birini to‘ldirib, tarixiy jarayonlarning yaxlit manzarasini yaratadi. Ayniqsa, ular ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi⁸.

Xulosa qilib aytanda, mazkur tadqiqot xalq sudlari va qozilik sudlari Turkiston jamiyatida muhim huquqiy institut bo‘lganini ko‘rsatadi. Ular diniy qadriyatlar, milliy an‘analar hamda mulkchilik munosabatlari bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritgan. XIX–XX asrlarda esa ushbu tizim Rossiya imperiyasi huquqiy normalari bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos aralash sud tizimini shakllantirgan. Shuningdek, qozilik hujjatlari va vaqf manbalari ayollar huquqlari, oila-nikoh munosabatlari hamda ijtimoiy hayotni o‘rganishda muhim manba ekanligi aniqlandi. Ularni chuqur tadqiq etish zamonaviy sud-huquq tizimini rivojlant

⁸ Karimov Kaxramon Sadikovich. XIX asr oxirgi - XX asr boshlarida Turkistonda imperiya huquqiy taksonomiyasining qozilar faoliyatiga fleksibillashuvi tarixidan [Matn]/ K.S.Karimov. – Namangan: “Vodiy Poligraf”, 2024. 123-128-betlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Karimov Kaxramon Sadikovich. XIX asr oxirgi - XX asr boshlarida Turkistonda imperiya huquqiy taksonomiyasining qozilar faoliyatiga fleksibillashuvi tarixidan [Matn]/ K.S.Karimov. – Namangan: “Vodiy Poligraf”, 2024. – 166 b.
- 2.Nodirbek Abdulahatov, Tolibjon G‘oziyev. Burhoniddin Marg‘inoniy: Tarixiy haqiqat va asotirlar. “Yangi asr avlodi”, 2010.
- 3.Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. “Ma’naviyat”, 2009. 4.X.T.Odilqoriyev. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. “O‘qituvchi”, T., 2012.
- 5.Foziljon Otaxonov. O‘zbekiston Respublikasi yuridik xizmat. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, T., 200.
- 6.V.V. Bartold. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 19
7. https://constitution.uz/oz/pages/xotin_qizlar_huquqlari
constitution.uz (https://constitution.uz/oz/pages/xotin_qizlar_huquqlari) Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xotin-qizlar huquqlarining kafolatiirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

РОЛЬ НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В МЕХАНИЗМАХ ТРАНСФОРМАЦИИ ПУБЛИЧНОЙ ДИПЛОМАТИИ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И ПАКИСТАНА

Рашидова Азиза Аминбоевна

электронная почта: raziza7757.14@gmail.com

**Национальный педагогический университет Узбекистана имени
Низами, докторант**

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются современные механизмы трансформации публичной дипломатии и стратегическое значение научно-образовательного сотрудничества в этих процессах на примере Узбекистана и Пакистана. В ходе исследования рассматриваются теоретические основы таких понятий, как публичная дипломатия, дипломатия знаний, концепция академической «мягкой силы», рост межуниверситетского сотрудничества и академическая мобильность. Также на институциональном уровне изучаются этапы развития, современные